

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MATCHANOV RUSLANBEK AZATOVICH

**HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGAN XODIMLARINING
JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of the doctor of science (DSc)

Matchanov Ruslanbek Azatovich

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish
uslubiyati..... 3

Матчанов Русланбек Азатович

Методика повышения физической подготовки сотрудников
правоохранительных органов 35

Matchanov Ruslanbek Azatovich

Methodology for enhancing the physical preparedness of law enforcement
personnel..... 69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 74

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped 28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MATCHANOV RUSLANBEK AZATOVICH

**HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGAN XODIMLARINING
JISMONIY TAYYORGARLIGINI OSHIRISH USLUBIYATI**

**13.00.04-Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy
tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Ped1103 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kenash veb sahifasida www.jtsu.uz va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Matkarimov Rashid Masharipovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Korobeynikov Georgiy Valeryevich
biologiya fanlari doktori, professor

Uraimov Sanjar Ruzmatovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich
biologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti xuzuridagi DSc.03/30.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “_____” “_____” soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370) 717-17-76, veb sayt: www.jtsu.uz. e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yhatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy Tel: (0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____ kuni tarqatilgan.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

M.S.Olimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, p.f.d. (DSc), professor

M.A.Ibragimov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida yuqori darajadagi jismoniy va jangovar tayyorgarlikka bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, jinoyatchilikning murakkablashuvi, xavfsizlikka bo'lgan tahdidlarning ko'payishi huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlaridan faqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalargina emas, balki jismoniy chidamlilik, psixologik barqarorlik, tezkorlik va jangovar vaziyatlarda to'g'ri harakat qila olish kabi sifatlarni talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, xodimlarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida yakkakurash sport turlarining texnik-taktik harakatlari, funksional holatni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, psixologik tayyorgarlikni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni to'g'ri va samarali qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini oshirishda yakkakurash sport turlarining kompleks qo'llanilishiga oid ilmiy asoslangan uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotlar olib borish va natijadorlikni oshiruvchi ilg'or yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilish hanuzgacha dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining murakkablashuvi, jinoyatchilik shakllari va usullarining takomillashib borishi huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablarni kundan-kunga oshirmoqda. Xususan, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish, xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun yakkakurash sport turlarining texnik-taktik va psixologik tayyorgarlik imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xodimlarning kasbiy tayyorgarlik tizimida seleksiya ishlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish, jangovar vaziyatlardagi harakat ko'nikmalarini izchil shakllantirish, mashg'ulot yuklamalari va uslublarini optimallashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar bu boradagi natijadorlikni oshirishga xizmat qilishi shubhasiz. Biroq, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining xizmat faoliyatida samarali qo'llaniladigan hujum harakatlarining natijadorligini aniqlash, jangovar yakkakurash usullarining optimal kombinatsiyalarini ishlab chiqish, xodimlarning jangovar tayyorgarlik darajasini oshiruvchi ilmiy asoslangan uslubiy ko'rsatmalarni yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy izlanishlar olib boorish zaruratini tug'dirmoqda.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholini sog'lom turmush tarziga jalb etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini takomillashtirish, ularning kasbiy mahoratini oshirishda yakkakurash sport turlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sport – bu, avvalo, sog'lom turmush tarzidir, kuchli iroda va fidoyilik maktabidir. Shu bois sport sohasi rivojiga davlat siyosati darajasida

yondashamiz” Mazkur yondashuv asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimida xodimlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini muntazam monitoring qilish, seleksiya tizimini takomillashtirish, ularni yakkakurash uslublari orqali jangovar vaziyatlarga tayyorlash, zamonaviy ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xodimlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, jangovar yakkakurash uslublariidan samarali foydalanish orqali xizmat samaradorligini oshirish va zamonaviy xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishda ularning raqobatbardoshlik darajasini yuksaltirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish jarayonida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 22-avgustdagi VM-466-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida faoliyat ko‘rsatadigan maktabdan tashqari nodavlat sport-ta’lim muassasasi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash haqida”gi qarorida sport-ta’lim muassasalarining faoliyatini takomillashtirish, seleksiya tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish, yosh sportchilarni sifatli tayyorlash hamda ularning funksional, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligini ilmiy asosda rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu me‘yoriy-huquqiy hujjatlar mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, organ xodimlarining jangovar tayyorgarligini takomillashtirishda yakkakurash sport turlarining kompleks qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilayotgan ushbu dissertatsiya tadqiqoti soha amaliyotida muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” bilan bog‘liq ustuvor yo‘nalishlarga mos ravishda amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.¹ Dunyo miqyosida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish, ularni yakkakurash sport turlaridan samarali foydalanish orqali kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Xususan, xizmat faoliyatida jismoniy va psixologik

¹ Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.fiuc.org, www.oduvs.edu.ua, www.yongin.ac.kr/cmn/en/main/main.do, www.aun.edu.ng, <https://drew.edu/>, www.bu.edu, www.lsac.org, <http://cdsu.admissions.cn/>, www.fisu.net, www.hanze.nl/en, www.uab.cat, www.al-azharinternationalcollege.com, www.alexandercollege.ca, www.miamihurricanes.com, www.num.edu.mn, www.mgusit.mosport.ru, www.uralgufk.ru, www.kpfu.ru, www.dvfu.ru, www.sportmed.uz, www.jtsu.uz saytlar asosida ishlab chiqilgan.

barqarorlik, texnik-taktik mahorat, ekstremal sharoitlarda to'g'ri va tezkor harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar asosida kompleks yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda yakkakurash sport turlarining (sambo, dzyudo, qo'l jangi va boshqa) tayyorgarlik jarayonida qo'llanilishining ilmiy-nazariy asoslari Central American University of Managua (AQSH), Yong In University (Janubiy Koreya), German Sport University Cologne (Germaniya), Boston University (AQSH), Faculty of Kinesiology University of Zagreb (Xorvatiya), Chengdu Sport University (Xitoy), Universitat Autònoma de Barcelona (Ispaniya), Moskva davlat sport va turizm universiteti (Rossiya), Ukraina Milliy jismoniy tarbiya va sport universiteti, P.F.Lesgaft nomidagi Milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti (Rossiya) kabi yetakchi oliy ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida keng miqyosda o'rganilmoqda.

Ushbu ilmiy izlanishlarda organ xodimlarini xizmat faoliyatiga moslashtirishda yakkakurash sport turlarining texnik-taktik harakatlari, maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalarini optimallashtirish, psixologik barqarorlikni shakllantirishga qaratilgan mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, Central American University of Managua (AQSH) va Yong In University (Janubiy Koreya) olimlari tomonidan jangovar sharoitlarda maxsus chidamlilikni oshirish, ekstremal vaziyatlardagi harakat strategiyalarini shakllantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan. Al-Azhar University of Sports Exercise (Misr) va University of Miami Athletics (AQSH) olimlari tomonidan esa, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining tana vaznini boshqarish, mashg'ulot yuklamalarini balanslash va xizmat faoliyatida ko'rsatkichlarni barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Moskva davlat sport va turizm universiteti (Rossiya) va Universitat Autònoma de Barcelona (Ispaniya) ilmiy-tadqiqot markazlarida olib borilgan izlanishlarda xodimlarning individual imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga qaratilgan tayyorgarlik modellarini ishlab chiqishga alohida urg'u qaratilgan. Shu bilan birga, Drew University (AQSH), Faculty of Kinesiology University of Zagreb (Xorvatiya) olimlari tomonidan organ xodimlarining jangovar tayyorgarligida yakkakurash uslublari asosida mashg'ulotlar tizimini takomillashtirish, maxsus chidamlilikni oshirish, mashg'ulot jarayonlarini musobaqaviy vaziyatlarga yaqinlashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan.

German Sport University Cologne (Germaniya) va P.F.Lesgaft nomidagi Milliy davlat jismoniy tarbiya, sport va salomatlik universiteti (Rossiya) olimlari tomonidan yakkakurash sport turlarining morfofunktsional ko'rsatkichlari va xizmat faoliyatidagi natijadorlik o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikni aniqlash va optimallashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, Moskva davlat sport va turizm universiteti (Rossiya), University of Miami Athletics (AQSH), Qozon Federal universiteti (Rossiya) olimlari tomonidan xizmat faoliyatida jangovar harakatlarning samaradorligini oshirish, qarshi hujum strategiyalarini shakllantirish va xizmat bellashuvlarida

муvaffaqiyatli harakatlarni ta'minlash bo'yicha tizimli yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini takomillashtirishda yakkakurash sport turlarining texnik-taktik harakatlaridan, maxsus jismoniy tayyorgarlik yuklamalaridan va psixologik barqarorlikni oshirish uslublaridan samarali foydalanish bo'yicha zamonaviy ilmiy asoslangan tizimlar ishlab chiqilishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan bo'lib qolmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon miqyosida huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirish, ularni yakkakurash sport turlari orqali kasbiy mahoratini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy izlanishlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Xususan, jangovar mashg'ulotlarning samaradorligi xodimlarning jismoniy va funksional imkoniyatlari, harakatlarning intensivligi va uzluksizligini belgilash qobiliyatiga bevosita bog'liqligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan (El-Roby, Mohammad Reda, R.G.Valeev, L.P.Matveev, S.D.Callan, D.M.Brunner)². Murakkab texnik-taktik harakatlarni xizmat faoliyati uchun xos bo'lgan yaxlit, integral shaklda shakllantirish, harakat ko'nikmalarining mukammallashuvi va ularni real xizmat vazifalarida samarali qo'llash muammolari xorijiy mutaxassislar tomonidan keng o'rganilgan.

D.V.Maksimov, V.N.Seluyanov, S.E.Tabakov, V.N.Platonov, N.V.Latishev³ kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida yakkakurash sport turlarining o'quv-mashq mashg'ulotlarini tashkil etish, xodimlarning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish va mashg'ulot yuklamalarini ilmiy asosda tartibga solish bo'yicha aniq tamoyillar ilgari surilgan. Shu bilan birga, sportchilarni tayyorlashda nazorat testlaridan keng foydalanish, ovqatlanish ratsioni va dam olish rejimiga qat'iy amal qilish, tayyorgarlik jarayonini individuallashtirish orqali raqobatbardoshlik darajasini oshirish zarurligi ko'rsatib o'tilgan (R.B.Kinngxem, D.V.Gorenflo, I.Yu.Radchich, S.A.Vasil'ev va boshqalar)⁴.

² El-Roby, Mohammad Reda (2007): Training programs and preparation exercises, Mahy Publishing, Alexandria. (in Arabic language), 2007: P. 25., Валеев, Р.Г. Повышение технико-тактического мастерства борцов на основе совершенствования комбинационного стиля ведения поединков: ав-тореф. дис. ...канд. пед. наук /Валеев Равил Галимзянович; Восточно-Сибирский гос. технологический ун-т.- Санкт-Петербург, 2007.- 22 с., Матвеев, Л. П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: учебник / Л. П. Матвеев. – 6-е изд. – Москва: Спорт, 2019. –340 с.: ил. – (Олимпийское образование). – ISBN 978-5-907225-00-8., Callan, S.D. Physiological profiles of elite freestyle wrestlers /S.D. Cal-lan, D.M. Brunner et al. //J Hrength Cold Res.- 2000.-V. 14.- P. 162-169.

³ Максимов Д.В., Селуянов В.Н., Табаков С.Е. Физическая подготовка единоборцев. М.: ТВТ Дивизион, 2014.-157 с. ISBN 978-5-98724-084-7., Королев Г.И., Современные принципы системы подготовки в «Науки об образовании» -С. 21-23., <https://cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-printsipy-sistemy-podgotovki-v-sporte>, Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. – К.: Олимп. л-ра, 2004. - 808 с., Латышев Н.В., Латышев С.В., Гаврилин В.А. Анализ соревновательной деятельности финалистов игр XXIX Олимпиады в Пекине по вольной борьбе// Теория и методика физического воспитания. -2008. - № 1. - С. 173-180

⁴ Kinngxem R.B., Gorenflo D.W. (2001) Weight loss methods of high school wrestlers. Med Sci Sports Exerc 33(5):-P. 810-813. Радчич И.Ю. Разработка управленческого решения в подготовке высококвалифицированных игроков / И.Ю.Радчич // Вестник спортивной науки. – 2003. – № 2. – С. 10–15., Корженевский А.Н., Васильев С.А., Романов Е.А. и Подливаев Б.А. (2013). Особенности адаптации к

Shuningdek, A.N.Abdiyev, O.V.Goncharova, F.A.Kerimov⁵ kabi tadqiqotchilar yakkakurash sport turlaridan foydalanib xodimlarning maxsus chidamliligini rivojlantirish, texnik-taktik harakatlarning sifatini oshirish, jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini samarali boshqarish bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqqanlar. Biroq, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini oshirishda yakkakurash vositalarining kompleks qo'llanilishi, mashg'ulot jarayonida texnik-taktik harakatlarni takomillashtirish, xizmat faoliyati uchun zarur bo'lgan yuqori darajadagi maxsus jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslar yetarlicha ochib berilmagan.

Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda yakkakurash sport turlaridan foydalanish orqali xodimlarning jangovar tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari qisman o'rganilgan bo'lsa-da, mavjud muammolarni tizimli ravishda hal etishga qaratilgan kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Xususan, organ xodimlarining musobaqa faoliyatiga yaqinlashtirilgan mashg'ulot jarayonlarini ilmiy asoslash, texnik-taktik harakatlarni barqarorlashtirish, xodimlarning maxsus chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan uslubiy tizimlarni ishlab chiqish zarurati dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

So'nggi yillarda respublikamiz olimlari R.M.Matkarimov, M.M.Rahimov, A.A.Avezmetov, O.J.Dadaboyev, Yu.Yu.Aripov, Q.M.Sharapova, K.F.Bayazitovlar⁶ tomonidan yuqori malakali sportchilarning ko'p yillik tayyorgarligini boshqarish, texnik-taktik mahoratni shakllantirish, sport zahiralari

неспецифическим нагрузкам борцов высокой квалификации, характеризующихся разным уровнем спортивных результатов. Теория и практика физической культуры, (12), 68-71., Айзятуллова Г.Р. Совершенствование физико-технической подготовленности высококвалифицированных акробатов при обучении статодинамическим подержкам / Г.Р. Айзятуллова, Т.К. Сахарнова // Перспективные направления в области физической культуры, спорта и туризма: материалы VIII Всерос. научно-практической конф. с междунар. участием. - Нижневартовск, 2018. - С. 8-11.; Батырев Э.М. Оценка сформированности навыков профилактики заболеваемости средствами физической культуры и спорта у студентов медицинского вуза / Э.М.Батырев, А.В.Доронцев // Ученые записки университета им. П.Ф. Лесгафта. - 2009. - № 12 (58). - С. 13-17.; Strengthening the General Functional Capabilities of the Body in the Conditions of a Feasible Increase in Muscle Activity after Intervention on the Heart / S.Yu. Zavalishina, D.M. Pravdov, E.D. Bakulina, M.V. Eremin, O.G. Rysakova, A.V. Dorontsev // Biomedical and Pharmacology Journal. - 2020. - No. 13(2). -P. 597-602.; Доронцев А.В. Оценка факторов риска развития дезадаптивных реакций на физическую нагрузку различной направленности у мужчин среднего возраста/ А.В. Доронцев, А.А. Светличкина // Человек. Спорт. Медицина. - 2020. - Т. 20, № 1. - С. 135-141.

⁵ Абдиев А.Н. Научно-педагогические основы формирования профессиональных умений тренера у студентов, специализирующихся в видах спортивных единоборств: Автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. — Т., 2004. -51с.; Гончарова О.В. Методика развития способности детей младшего школьного возраста к проявлению высококонцентрированных взрывных усилий в процессе физического воспитания: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. — Т., 2007. -24с.; Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. -Т.: УзДЖТИ, 2001. - 286 с.

⁶ Matkarimov R.M. Yuqori malakali og'ir atletikachilarni ko'p yillik tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari // doktorlik dissertatsiyasi. Ch.:2021. – 235 с.; M.M.Raximov, A.A.Avezmetov. Sport zahiralarning tayyorlashning boshqaruvini tashkillashtirish- //ЖУРНАЛ. Academic research in educational sciences. February, 2022 Multidisciplinary Scientific Journal, №3, 43-48b., Dadabayev O.J. Dzyudochilarning ko'p yillik tayyorgarligi konsepsiyasi // doktorlik dissertatsiyasi. Ch.:2021. – 218 b.; Yu.Yu.Aripov, Q.I.M.Sharapova sportchilarni tayyorlashda texnik-taktik mahoratlarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari. Central asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS) Google Scholar ISSN:2181-2454 www.carjis.org VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2021 Universal Impact Factor (UIF) 2021:7.1, -B. 215-225.; Баязитов К.Ф. Совершенствование управления многолетней подготовкой тяжелоатлетов: дис. ... док-ра пед. наук / Баязитов К.Ф. - Ташкент, 2021. - 175 с.

tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ushbu ilmiy ishlarda ilgari surilgan uslubiy tavsiyalar huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Mazkur sohada mavjud bo‘lgan katta ilmiy-uslubiy tajribadan kelib chiqib, organ xodimlarining jangovar tayyorgarligini yakkakurash sport turlari vositalari asosida takomillashtirish, mashg‘ulot jarayonini xizmat faoliyatining real talablari bilan uyg‘unlashtirish, natijadorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslarni yaratish zaruriyati dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining

2020-2024 yillarga mo‘ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari strategiyasi va istiqbolli rejasining “O‘zbekiston terma jamoalarida malakali sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining jismoniy tayyorgarligini oshirishda yakkakurash sport turlari vositalaridan foydalanish uslubiyatini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini tashkil etish uchun yakkakurash sport turlarining texnik-taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarlik omillarini o‘z ichiga olgan ilmiy-uslubiy tizimni ishlab chiqish;

jangovar tayyorgarlik jarayonida organ xodimlari tomonidan keng qo‘llaniladigan asosiy yakkakurash usullarini takomillashtirish, ularning bajarilish xarakteri va xizmat faoliyatidagi qo‘llanilish turini inobatga olgan holda, maxsus mashg‘ulot komplekslarini ishlab chiqish;

xizmat faoliyati davomida organ xodimlari tomonidan qo‘llaniladigan taktik harakatlar kombinatsiyalarining samaradorligini oshirish maqsadida, yakkakurash texnikasi asosida ketma-ket bajariladigan usullar zanjiri modelini yaratish va ularni real jangovar vaziyatlarga moslashtirish imkoniyatlarini kengaytirish;

xodimlarning maxsus chidamliligini rivojlantirish uchun mashg‘ulot jarayonlarida jangovar bellashuvlarga xos bo‘lgan vaqt diapazonlarini model asosida qayta tashkil qilish, ularni xizmat faoliyatiga integratsiyalashgan holda yo‘naltirish;

huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini oshirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha yakkakurash sport turlarining kompleks qo‘llanilishiga doir ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining jangovar jismoniy tayyorgarlik jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini oshirishda yakkakurash sport turlaridan

foydalanish orqali ularning maxsus jismoniy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda xorijiy va mahalliy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni ilmiy-nazariy tahlil qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlari o'rtasida anketa so'rovnomalarini o'tkazish, jangovar tayyorgarlik bo'yicha mutaxassis-trenerlarning tajribasini umumlashtirish, ekspert baholash, pedagogik tajriba, xizmat faoliyati jarayonida kuzatuvlar, pedagogik testlar, pulsometriya va yurak-qon tomir tizimi funksional ko'rsatkichlarini baholash uslublari, instrumental usullar (videotahlil va monitoring), shuningdek, olingan natijalarni matematik-statistik usullar yordamida tahlil qilish uslublaridan foydalanildi..

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning jismoniy tayyorgarlik tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy asosga ega funksional holatini oshiruvchi qo'l jangi, jangovar sambo va kikkoks kabi sport turlarining maxsus vositalar sxemasidan muntazam ravishda foydalanish hisobiga amaliy mashg'ulotlarni tizimli tashkil etish imkoniyatlari kengaytirilgan;

xizmat faoliyati davrida organ xodimlarining turli vaziyatlardagi texnik-taktik harakatlarini bajarishdagi xatolarni bartaraf etish uchun ikki va undan ziyod huquqbuzarlarga qarshi keng qo'llaniladigan usullarni bajarish xarakteri va turini mujassam etuvchi mashqlar majmuasini malaka oshirish kurslarida qo'llash orqali hujum usullarini bajarish samaradorligi oshirilgan;

xodimlarning xizmat jarayonida duch keladigan vaziyatlardagi himoya harakatlarni samarali amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'l va oyoqlarni harakatsiz holatga keltirishda jangovar sambo texnikalari asosida ishlab chiqilgan kombinatsion modelni tinglovchilarning amaliy mashg'ulotlarida ko'rgazma qilish orqali qo'shimcha texnik usullarni uzluksiz bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

harbiy oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarining huquqbuzarlarga qarshi bellashuvlarda bo'g'im harakatchanligini oshirish va taslim qildirish prinsiplarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tashlash, chalish, o'g'riq berish va qayirish kabi harakatlarni o'zida mujassam etuvchi mashg'ulot dasturidan bitiruvchi kursantlarning malakaviy amaliyot davrida qo'llash hisobiga qo'lga olish ko'nikmalari takomillashtirilgan;

yosh xodimlarining amaliy mashg'ulot jarayonlarida tezkor harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi oshirish uchun ishlab chiqilgan maxsus tayyorgarlik va chidamlilikni takomillashtirish tizimi yordamida xizmat faoliyatida jarohatlanishning oldini olish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini optimallashtirish maqsadida ishlab chiqilgan "Maxsus tayyorgarlik va chidamlilikni takomillashtirish tizimi" asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va

aloqa harbiy instituti kursantlari bilan olib borilgan tajribalar natijasida jangovar vaziyatlarda hujum harakatlari samaradorligini oshirishga erishildi, xususan qo‘l zarbasidan so‘ng raqibni oyoqlardan ko‘tarib tashlash ko‘rsatkichi 16,2%ga, oyoq zarbasidan so‘ng raqibni beldan oshirib tashlash ko‘rsatkichi esa 7,1%ga ortgan.

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi “DINAMO” jismoniy tarbiya-sport jamiyati sportchilari va Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari o‘rtasida olib borilgan mashg‘ulotlar natijasida texnik harakatlar kombinatsiyalarini bajarish samaradorligi oshirildi, ya’ni beldan oshirib tashlash usulini bajarishda burilish ko‘rsatkichi 5,3%ga, yelkadan oshirib tashlash usulida esa 4,2%ga ortdi, shu bilan birga bellashuv vaqtida amalga oshirilgan texnik usullar samaradorligi 14,8%ga, og‘ritish usullari bajarilish samaradorligi esa 4,6%ga oshgani qayd etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning nazariy va amaliy mohiyatining ilmiy asoslanganligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini takomillashtirishda yakkakurash vositalarini qo‘llashda kompleks nazorat tamoyillariga asoslanilganligi, shuningdek, moslashuv nazariyasi hamda jismoniy tayyorgarlik va sport nazariyasi va usullarining tadqiqot vazifalariga muvofiqligi bilan tasdiqlanadi. Tadqiqotda qo‘llanilgan uslublar, jumladan, pedagogik tajriba, kuzatuv, testlar, ekspert baholash va matematik-statistik tahlil usullari tadqiqot maqsadi va vazifalariga to‘liq mos keladi.

Tadqiqot materiallari ustida miqdoriy va sifat tahlilini amalga oshirish, ilmiy umumlashtirish, daliliy materiallarning keng qamrovliligi va aniq statistik qayd etilishi tadqiqot natijalarining yuqori darajadagi ishonchliligini ta’minladi. Olingan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va ishonchliligi tajriba-sinov ishlari asosida matematik-statistik usullar bilan qayta ishlanib, dalolatnomalar bilan tasdiqlandi va amaliyotga tatbiq qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Jamoat xavfsizligi universiteti tuzilmalari bilan o‘tkazilgan sinov-tajriba natijalari asosida olingan dalolatnomalar tadqiqot natijalarining ishonchliligini amaliy jihatdan tasdiqlab berdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining jangovar tayyorgarligini yakkakurash sport turlari vositalari asosida takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tajriba dasturi o‘quv-mashg‘ulot jarayoniga integratsiyalashishi, o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar natijasida ilk bora “Organ xodimlarining maxsus tayyorgarligini ifodalovchi model ko‘rsatkichlari”, “Jangovar vaziyatlarda keng qo‘llaniladigan usullarni takomillashtirish uchun mashqlar majmuasi”, “Texnik-taktik kombinatsiyalar samaradorligini oshiruvchi model”, “Jangovar tayyorgarlik natijadorligini oshirishga qaratilgan mashg‘ulot dasturi” ishlab chiqilgan hamda xodimlarning funksional holatini baholash uchun fiziologik testlar bilan bir qatorda, xizmat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan texnik-taktik tayyorgarlik darajasini aniqlovchi testlar ishlab chiqildi va amaliyotda sinovdan o‘tkazilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining mashg'ulot jarayoniga ishlab chiqilgan dastur va modellarni qo'llash samaradorligi tajriba-sinovdan o'tkazildi va yuqori natijalar bilan tasdiqlandi hamda xodimlarning maxsus tayyorgarligi takomillashishi hisobiga xizmat vazifalarida bajariladigan hujum harakatlarining samaradorligi, bajarilish sifati, zarba va ushlab kombinatsiyalarining to'liq amalga oshirilishi, harakatdan so'ng uzluksiz qo'llaniladigan og'ritish usullarini bajarish sifati oshirildi. Shuningdek, jangovar vaziyatlarda xodimlarning qarshi hujumlarga nisbatan tezkor reaksiya berish imkoniyatlari kengaydi va ularning maxsus chidamlilik darajasi sezilarli ravishda rivojlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarining mashg'ulot jarayonlarida maxsus jismoniy tayyorgarligi va chidamliligini takomillashtirish bo'yicha tajriba va tadqiqot natijalari asosida:

huquqni muhofaza qiluvchi xodimlarning jismoniy tayyorgarlik tizimini zamonaviy talablarga moslashtirish uchun ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy asosga ega funksional holatini oshiruvchi qo'l jangi, jangovar sambo va kikkoks kabi sport turlarining maxsus vositalar sxemasidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kursantlarining amaliy mashg'ulotlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 02-16/8324-son ma'lumotnomasi). Natijada, qo'l zarbasidan so'ng raqibni oyoqlardan ko'tarib tashlash samaradorligi 16,2% ga, oyoq zarbasidan so'ng beldan oshirib tashlash samaradorligi 7,1% ga oshgan;

xizmat faoliyati davrida organ xodimlarining turli vaziyatlardagi texnik-taktik harakatlarini bajarishdagi xatolarni bartaraf etish uchun ikki va undan ziyod huquqbuzarlarga qarshi keng qo'llaniladigan usullarni bajarish xarakteri va turini mujassam etuvchi mashqlar majmuasidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi "DINAMO" jismoniy tarbiya-sport jamiyati sportchilari bilan mashg'ulot jarayonida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 02-16/8324-son ma'lumotnomasi). Natijada, beldan oshirib tashlash usulida burilish samaradorligi 5,3% ga, qo'llarni X-simon qilib yelkadan oshirib tashlashda 4,2% ga, oyoqlarni ko'tarib tashlashda 6,1% ga, yelkadan oshirib tashlashda esa 7,13% ga oshgan;

xodimlarning xizmat jarayonida duch keladigan vaziyatlardagi himoya harakatlarni samarali amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish uchun qo'l va oyoqlarni harakatsiz holatga keltirishda jangovar sambo texnikalaridan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti kursantlarining o'quv mashg'ulotlarida tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 02-16/8324-son ma'lumotnomasi). Natijada, bellashuv davomida bajarilgan texnik usullar samaradorligi 14,8% ga, og'ritish usullarini bajarish samaradorligi esa 4,6% ga ortgan;

harbiy oliy ta'lim muassasalari tinglovchilarining huquqbuzarlarga qarshi bellashuvlarda bo'g'im harakatchanligini oshirish va taslim qildirish prinsiplarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan tashlash, chalish, o'g'riq berish va qayirish kabi harakatlarni o'zida mujassam etuvchi mashg'ulot dasturidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi tasarrufidagi mashg'ulot markazida tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 02-16/8324-son ma'lumotnomasi). Natijada, xizmat faoliyatidagi ushlar harakatlarining natijadorligi 40,6% ga oshgan;

yosh xodimlarining amaliy mashg'ulot jarayonlarida tezkor harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish, maxsus jismoniy tayyorgarligi oshirish uchun ishlab chiqilgan maxsus tayyorgarlik va chidamlilikni takomillashtirish tizimidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining "Jangovar sport turlari" ixtisosligida tahsil olayotgan tinglovchilarning amaliy mashg'ulot jarayonlariga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi sport vazirligining 2025-yil 7-avgustdagi 02-16/8324-son ma'lumotnomasi). Natijada, xizmat faoliyatida bajariladigan parter holatidagi usullar samaradorligi 20,3% ga va og'ritish usullarini bajarish sifati 36,4% ga ortgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (8 tasi respublikada va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda) va 5 ta xalqaro va 2 ta respublika anjuman to'plamlarida tezislari chop etilgan hamda 1 ta monografiya mazmuniga kiritilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi 220 sahifalik matnda bayon etilgan bo'lib, kirish, beshta bob, 12 ta rasm, 16 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zaruriyati asoslab berilgan. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ichki ishlar, mudofaa, milliy gvardiya, favqulodda vaziyatlar va boshqa kuch tuzilmalari tizimida xizmat qilayotgan xodimlarning kasbiy mahorati, jismoniy va psixologik tayyorgarligini oshirish masalalari davlat siyosati darajasida ko'rilmogda. Chunki zamonaviy xavf-xatarlar va tahdidlar sharoitida xizmat faoliyatini bajarishda xodimlardan nafaqat kasbiy bilim, balki yuqori jismoniy tayyorgarlik, tezkorlik, chidamlilik va muvofiqlashtirilgan harakat ko'nikmalari talab etiladi. Ayniqsa, ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilish, qarshilik ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash kabi holatlarda xodimning jismoniy tayyorgarligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan xizmatga tayyorlash

tizimini takomillashtirishda yakkakurash sport turlari vositalaridan kompleks foydalanish zarurati dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida vujudga chiqmoqda.

Dissertatsiyaning **“Organ xodimlarini tayyorlashda yakkakurash sport turlarining o‘rni va jismoniy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, yangi O‘zbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining tubdan isloh qilinishi, xavfsizlik tizimlari xodimlarining kasbiy va jismoniy tayyorgarligiga qo‘yilayotgan yangi talablar, shuningdek, yakkakurash vositalarining kompleks qo‘llanilishi orqali xizmat samaradorligini oshirish masalalarining dolzarbligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Shu bilan birga, kuch tuzilmalari tizimida xizmat qiluvchi xodimlarning xizmat faoliyati sharoitlariga mos jismoniy tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish, ularning jismoniy salohiyatini oshirish orqali xizmatga tayyorlik darajasini optimallashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida ko‘rib chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“Jangovar tayyorgarlikni oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning samaradorligi”** deb nomlangan ikkinchi bobida organ xodimlarini jismoniy tayyorlashda yakkakurash sport turlarining imkoniyatlari nazariy-metodik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, xizmat faoliyati xavf-xatarlarga boy, intensiv harakatlarni talab qiladigan, qaror qabul qilish tezligi va psixofiziologik barqarorlikni talab qiladigan murakkab sharoitlarda amalga oshiriladi. Bu holat, o‘z navbatida, organ xodimlarining umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasiga yuqori talablar qo‘yadi. Shu nuqtai nazardan, yakkakurash sport turlari vositalari – jumladan, kurash, dzyudo, sambo, karate va shu kabi sport turlarining texnik va taktik elementlari asosida tuzilgan mashg‘ulotlar majmuasi xizmatga tayyorlash tizimida alohida o‘rin egallaydi.

Mazkur bobda yakkakurash vositalarining xizmat faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan harakat ko‘nikmalari (jangovar holatga tayyor turish, himoyalash, dushmani zararsizlantirish, qurolli qarshilikka tayyorlik)ni shakllantirishdagi roli tahlil qilinib, ularning organ xodimlarining umumiy jismoniy tayyorgarligi bilan bog‘liqligi aniqlashtirildi. Ayniqsa, qisqa muddatli, ammo yuqori intensivlikka ega bo‘lgan mashg‘ulotlar modeli asosida yakkakurash elementlarini integratsiyalash orqali xizmatga yo‘naltirilgan jismoniy sifatlar – chaqqonlik, kuch, chidamlilik, muvozanat, psixomotor tezlik, koordinatsiya singari ko‘nikmalarni rivojlantirish mumkinligi isbotlandi.

Shuningdek, organ xodimlarining jismoniy tayyorgarligida yakkakurash asosidagi mashg‘ulotlarni qo‘llash ularning psixologik barqarorligi, irodaviy sifatleri, stressga bardoshlilik, xavfli vaziyatlarda o‘zini tutish madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi, tajribaviy va ilmiy izlanishlar bilan asoslandi. Tadqiqotda xorijiy davlatlar, xususan, Rossiya, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar kuch tuzilmalari uchun mo‘ljallangan jismoniy tayyorgarlik dasturlarida yakkakurash sport turlarining kompleks yondashuv asosida qo‘llanilishi tahlil qilindi. Ularning ilg‘or tajribalari O‘zbekiston sharoitiga

moslashtirilgan holda sinovdan o'tkazish uchun metodik yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, xizmat faoliyatida qo'llaniladigan yakkakurash mashqlari tizimini shakllantirishda individual yondashuv, funksional holatni monitoring qilish, mashg'ulot yuklamalarining bosqichma-bosqich oshirilishini hisobga olish, har bir xodimning tayyorgarlik darajasiga qarab yuklama farqlanishini rejalashtirish zarurligi asoslandi. Ushbu bobda yakkakurash turlarining faqat jismoniy emas, balki psixoemotsional, ijtimoiy va kasbiy tayyorgarlikka ko'rsatadigan ta'siri ham tizimli yondashuv orqali izohlandi.

Dissertatsiyaning ushbu bobida organ xodimlarini tayyorlashda yakkakurash sport turlarining imkoniyatlarini tizimli o'rganish orqali mazkur vositalarni xizmatga yo'naltirilgan jismoniy tayyorgarlikning kompleks komponenti sifatida joriy etish zarurati ilmiy asoslab berildi. Shu asosda zamonaviy trening yondashuvlari va xizmat faoliyatiga integratsiyalangan mashg'ulot tizimi asosida yakkakurash vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi va bu boradagi yangi ilmiy yondashuv taklif etildi.

Dissertatsiyaning **“Jangovar tayyorgarlikning funksional tayyorgarlikka ta'siri”**, deb nomlangan uchinchi bobida jismoniy tayyorgarlik holati va yakkakurash vositalarining ahamiyati yuzasidan 63 nafar O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, DXX va boshqa tegishli organlarda faoliyat yurituvchi jismoniy tayyorgarlik bo'yicha mutaxassislar (murabbiylar) o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida kursantlarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilashda yakkakurash sport turlari mashg'ulot vositalarini ilmiy va amaliy ahamiyatiga doir qiyosiy tahlil o'tkazilganligi hamda so'rovnoma natijalari tahlili keng yoritilgan.

Anketa natijalariga ko'ra, 47% trenerlar mashg'ulotlarda sambo usullarini asosiy yo'nalish deb hisoblagan bo'lsa, 29% qo'l jangi, 24% kikkboksingni ta'kidlagan. Mashg'ulot davomiyligi borasida 52% ishtirokchilar 60 daqiqa deb javob bergan, 33% 90 daqiqa, qolgan 15% esa 45 daqiqa deb ko'rsatgan.

Mashg'ulot maqsadlari bo'yicha 38% trenerlar kuch va chidamlilikni asosiy yo'nalish deb ta'kidlagan, 35% texnik-taktik tayyorgarlik, 27% reaksiya va tezlikni asosiy hisoblagan.

Mashg'ulot jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holati 19% hollarda kuzatilgan. Jarahat holatlari esa 61% hollarda o'rtacha, 28% hollarda kamdan-kam, 11% hollarda esa tez-tez deb ko'rsatilgan.

So'rovda qatnashgan murabbiylarni sport toifalari va malakasi bo'yicha quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

Oliy toifali mutaxassislar – 21 nafar (33%), ularning sport unvoni – xalqaro toifadagi sport ustalari.

I toifa mutaxassislar – 26 nafar (41%), ularning aksariyati respublika darajasidagi sport ustalari.

II toifa mutaxassislar – 16 nafar (26%), ko'pchiligi sport razryadiga ega emas yoki o'rtacha sport tajribasiga ega.

Ish staji bo'yicha taqsimot:

- 1–5 yil – 18 nafar (29%)
- 6–10 yil – 24 nafar (38%)
- 11 yildan ko‘p – 21 nafar (33%)

Ushbu ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, sambo, qo‘l jangi va kikkobxing sport turlari asosida tashkil etilgan jismoniy tayyorgarlik tizimlari trenerlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Ammo mashg‘ulot jarayonida texnik va metodik jihatdan yanada mukammal yondashuv talab etiladi. Trenerlarning fikrlari bu boradagi islohotlar va yangi dasturlar ishlab chiqish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Har qanday jismoniy tayyorgarlik dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun uni qanday qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Jangovar sportlarga asoslangan yuqoridagi mashqlar majmuasini qo‘llashda e’tiborga olinishi lozim bo‘lgan jihatlar – bu mashg‘ulotlarning yosh va tayyorgarlik darajasiga muvofiq modifikatsiyasi, mashg‘ulot jarayonining yillik tsikllar bo‘yicha rejalashtirilishi va yuklamaning to‘g‘ri taqsimlanishidir (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Yosh toifalari, yillik sikl hamda yuklamalarning shiddatiga muvofiq mashg‘ulotlarni rejalashtirish asoslari

Toifa	Mashg‘ulot chastotasi	Yuklama darajasi	Asosiy maqsadlar	Maxsus izohlar
Yosh xodimlar (20–30 yosh)	Haftasiga 3–4 marta to‘liq mashg‘ulot, 1–2 dam kuni	Yuqori	Kuch, tezlik, texnikani o‘zlashtirish	Raqobat va motivatsiyaga e’tibor, musobaqaviy usullar
O‘rta yosh xodimlar (30–40 yosh)	Haftasiga 3 marta asosiy, 1–2 marta yengil mashg‘ulot	O‘rtacha	Kuch, chidamlilik, texnik murakkablik	Jarohatlar profilaktikasi, yuklama moslashtiriladi
Katta yosh xodimlar (40+)	Haftasiga 2–3 marta yengil yoki o‘rtacha mashg‘ulot	Past–o‘rtacha	Muvozanat, sog‘lomlashtirish, cho‘zilish	Yumshoq mashqlar, kontakt darajasi past bo‘ladi
Ayol xodimlar	Erkaklar bilan teng asosda, lekin yengil moslashtirish bilan	Moslashtirilgan	Moslashuvchanlik, epchillik, kuch yetishmovchiligini qoplash	Juftlashda e’tibor, yordamchi harakatlar qo‘llash
Individ. darajasi (sinov asosida)	Shaxsiy natijaga qarab farqlanadi	Moslashtirilgan	Sportchilik darajasi bo‘yicha farq	Kuchli — murakkab mashqlar; Zaif — soddalashtirilgan usullar

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligi yosh, jins, sog‘liq va individual tajriba darajasiga ko‘ra differensial yondashuvni talab qiladi. Yosh (20–30 yosh) xodimlar yuqori intensiv va to‘liq hajmdagi mashqlarni bemalol bajaradi, raqobat elementlari samarali bo‘ladi. O‘rta yosh (30–40 yosh) guruhida yuklama hajmi va intensivligi biroz kamaytiriladi, tiklanish va jarohatlar profilaktikasiga e‘tibor kuchayadi. Katta yosh (40+) ofitserlar uchun yuklama sezilarli kamaytiriladi, sog‘lomlashtirish va harakat faoliyatini saqlash ustuvor bo‘ladi. Ayol xodimlar erkaklar bilan teng qatnashadi, ammo vazn va kuch farqlarini inobatga olgan holda juftlash hamda normativlarda moslashuv kiritiladi.

Yillik tayyorgarlik tsikli tayyorlov, musobaqa va tiklanish bosqichlaridan iborat bo‘lib, har bir bosqich uchun mos mesotsikl va mikrotsikllar tuziladi. Tayyorlov davrida umumiy jismoniy baza yaratiladi (60–70% yuklama), musobaqa davrida maxsus jangovar ko‘nikmalar va yuqori intensivlik (80–90%) ustuvor bo‘ladi, tiklanish bosqichida esa yuklama minimal darajaga tushiriladi (30–50%). Mashg‘ulotlarda yuklama hajmi va intensivligi sport trenirovkasi prinsiplari asosida bosqichma-bosqich oshiriladi, dam olish va tiklanish jarayonlari rejalashtiriladi.

Fiziologik nuqtayi nazardan, tavsiya etilgan mashqlar majmuasi mushak kuchi va chidamliligini, tezkorlik va koordinatsiyani, yurak-qon tomir, nafas olish tizimlari faoliyatini, metabolik va gormonal muvozanatni yaxshilaydi. Natijada xodimlarning PWC ko‘rsatkichi oshadi, ular jangovar vazifalarni samarali bajarishga tayyor bo‘ladi.

Birinchiidan, yillik rejalashtirish jarayoni yuklamaning periodizatsiyasini ta‘minlaydi, bu esa ortiqcha charchash va jarohatlanish xavfini kamaytiradi. Har bir bosqichda yuklamani me‘yorlash orqali xodimlarning jismoniy formasi yil davomida optimal darajada ushlab turiladi, xizmat vazifalari bilan mashg‘ulot jarayoni o‘zaro muvofiqlashtiriladi.

Ikkinchiidan, jangovar sport vositalari orqali tayyorgarlik nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarlikni ham mustahkamlaydi. Sparringlar, real vaziyatga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar va taktik topshiriqlar xodimlarda stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni to‘g‘ri baholash kabi kasbiy muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Uchinchiidan, ilmiy asoslangan mashg‘ulot majmuasi huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Fiziologik adaptatsiyalar, funktsional imkoniyatlarning kengayishi va texnik mahoratning oshishi natijasida xodimlar ekstremal vaziyatlarda ham yuqori natija ko‘rsatishga qodir bo‘ladi. Bu yondashuvning amaliy ahamiyati — xavfsizlikni ta‘minlash va xizmat samaradorligini uzluksiz rivojlantirishdir (1-rasmga qarang).

Tamoyil yoki yondashuv	Tavsifi	Amaliy qo‘llanilishi
<ul style="list-style-type: none"> • Bosqichma-bosqich va izchillik • Yakka tartibda yondashuv • Ko‘rgazmalilik va amaliyot • Motivatsiya va rag‘batlantirish • Intensivlik va dam olish nazorati • Refleksiya va tahlil • Kollektivizm va jamoaviylik 	<ul style="list-style-type: none"> • Usullarni oddiydan murakkabga qarab o‘rgatish • Har bir xodimning individual xususiyatlarini hisobga olish • Vizual ko‘rsatma va real hayot bilan bog‘lash • Ichki musobaqa, mukofotlash, ijobiy ruhlantirish • Yuklama va dam muvozanati, ruhiy muvozanat • O‘z-o‘zini baholash, saboq chiqarish • Birgalikda o‘rganish va raqobatni uyg‘unlashtirish 	<ul style="list-style-type: none"> • Tayyorlov – maxsus – tiklanish bosqichlari, 70/30 nisbatli yondashuv • 10–15 kishilik guruh, ilg‘orlar – yetakchi rol, yordamchi murabbiylar • Video-tahlil, ssenariyli mashqlar, kasbiy muvofiqlik • “Eng yaxshi xodim” e‘lon qilish, og‘zaki maqto‘v, rag‘bat • Muqobil yuklamalar, hazil, tanaffus, “kayfiyat YQCHI” nazorati • Mashg‘ulotdan so‘ng fikr almashish, saboq olish savollari • Juftlik, guruhli mashqlar, umumiy maqsadlar va jamoaviy da‘vatlar

1-rasm. Jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish tamoiillari

Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarini jangovar sport vositalari orqali tayyorlash jarayoni pedagogik tamoyillarga asoslanib bosqichma-bosqich tashkil etilishi zarur. Bosqichma-bosqich va izchillik tamoyiliga muvofiq mashg‘ulotlar tayyorlov, maxsus va tiklanish bosqichlariga ajratiladi. Tayyorlov

davrida umumiy jismoniy baza yaratiladi, maxsus bosqichda murakkab texnika va taktikalar o'rgatiladi, yakunda esa o'zlashtirilgan ko'nikmalar mustahkamlanadi. Har bir mashg'ulotda avvalgi elementlarni takrorlab, so'ng yangi material qo'shish xodimlarda ishonch va barqaror o'zlashtirishni ta'minlaydi.

Yakka tartibdagi yondashuv va differensial ta'lim prinsipi yosh, jins, jismoniy imkoniyat va tajriba farqlarini inobatga olishni talab qiladi. Guruh tarkibi optimal - 10–15 kishidan oshmagan holatda samarali bo'ladi. Murabbiy ilg'or xodimlarga qo'shimcha vazifalar berib, ularni o'rgatish jarayoniga faol jalb etadi, bu esa liderlik va mas'uliyatni rivojlantiradi.

Ko'rgazmalilik tamoyili jangovar texnikalarni samarali o'zlashtirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Murabbiy yoki tajribali sportchi harakatni avval sekin, so'ng normal tezlikda ko'rsatadi, zarur hollarda videoanaliz va musobaqa lavhalaridan foydalanadi. Amaliyot bilan bog'lash prinsipi doirasida o'rgatilgan usullar xizmatdagi real vaziyatlarga moslashtiriladi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Motivatsiya va rag'batlantirish elementlari ichki musobaqalar, normativlar, mukofotlash va ijobiy e'tirof orqali ta'minlanadi. Ijobiy rag'bat, maqtov va omma oldida tan olish xodimlarda faoliyatga qiziqish va o'z ustida ishlash istagini kuchaytiradi. Intensivlik va dam olishning pedagogik nazorati mashg'ulot samaradorligi uchun muhim. Yuklama oshirilishi yoki kamaytirilishi jismoniy va ruhiy holatga qarab belgilanadi. Mashg'ulot jarayonida qat'iy talab bilan yengillik o'rtasidagi muvozanat saqlanadi, bu esa intizom va ijobiy psixologik fanni ta'minlaydi.

Refleksiya va tahlil jarayonlari xodimlarda o'z-o'zini baholash va xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantiradi. Murabbiy mashg'ulot yakunida qisqa tahlil olib borib, xodimlarga fikr bildirish imkonini yaratadi. Bu yondashuv o'z-o'zini o'qitish jarayonini kuchaytiradi. Jamoaviy o'rganish va kollektivizm ruhini shakllantirish ham muhim omil bo'lib, juftlik va guruhli mashqlar ijtimoiy o'rganish nazariyasiga mos holda amalga oshiriladi. Xodimlar bir-biridan o'rganadi, bir-biriga yordam beradi, sog'lom raqobat bilan birga hamkorlik muhiti yaratiladi. Mazkur pedagogik yondashuvlar amaliy jihatdan xizmat vazifalarini samarali bajarishga yordam beradi. Mashg'ulotlar chidamlilik, kuch, chaqqonlik va texnikani takomillashtirib, xodimlarni turli vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qilishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, jarohatlar xavfini kamaytiradi, xizmat intizomini mustahkamlaydi, jamoa ichida sog'lom iqlim yaratadi. Ilmiy asoslangan ushbu metodika huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining jismoniy va ruhiy tayyorgarligini oshirishga, jamoat xavfsizligini ta'minlashga va xizmat samaradorligini yuksaltirishga bevosita xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "**Xodimlarni jangovar tayyorgarligini oshirishda ilmiy-metodik ta'minot**" nomli to'rtinchi bobda Yangi O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasining rivojlanishida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilinib, ularning organ xodimlarining jismoniy tayyorgarlik tizimini takomillashtirishdagi o'rni yoritilgan. Harbiy va huquqni muhofaza qilish organlarida jangovar tayyorgarlikning tarixiy bosqichlari hamda shakllanish jarayoni izchil o'rganilgan. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik tizimidagi ustuvor

yo‘nalishlar va ularning amaliyotdagi ahamiyati ochib berilgan. Jahon tajribasiga asoslangan holda jang san’ati musobaqalari tahlil qilinib, ularning ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Ushbu bobda berilgan ilmiy tahlillar keyingi boblarda ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarning nazariy poydevorini tashkil etadi.

Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya safidagi yosh xodimlarning (18–22 yosh, 1–5 yillik xizmat staji) jismoniy va jangovar tayyorgarligi ularning xizmat burchlarini samarali bajarishi uchun muhim omildir. Bugungi murakkab xavfsizlik muhitida (terrorizm, ekstremizm, jinoyatchilik va h.k.) huquq-tartibot organlari xodimlari nafaqat huquqiy va kasbiy bilimdon, balki jangovar jihatdan ham puxta tayyorgarlikka ega bo‘lishi talab etiladi. Shu bois, Ichki ishlar vazirligi buyruq va ko‘rsatmalarida har bir xodim muntazam jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi shartligi belgilangan. Xususan, qo‘l jangi bo‘yicha yetarli ko‘nikmaga ega bo‘lish xodimga quolsiz holatda ham o‘zini himoya qilish va huquqbuzarni qo‘lga olish imkonini beradi.

Sambo nafaqat sport, balki huquqni muhofaza qilish organlari uchun ham mos qo‘l jangi tizimi sanaladi. Masalan, Rossiya, Bolgariya va Kuba kabi davlatlar huquqni muhofaza qiluvchi organ tayyorgarligida Sambo va unga yaqin tizimlardan foydalanadi. Sambo tez va samarali yakunlanadigan olishuvga urg‘u berishi bilan ajralib turadi – uning maqsadi raqibni imkon qadar tez taslim bo‘lishga majburlashdir. Ushbu yakkakurashda jangchilar asosan uch narsa bilan tanilgan: 1) kurash va dzyudo usullarini birlashtirgan texnik ko‘lam, 2) yerda nazorat qilish (parter) ko‘nikmalari va 3) oyoq bo‘g‘imlarini bukish usullari (oyoqqa og‘riq berish). Sambo usullarida raqibni yiqitish, yerda ushlab turish va zararsizlantirish bo‘yicha juda samarali usullar borligi ta’kidlanadi. Bu xususiyatlar huquq-tartibot xodimlari uchun ayni muddao – raqibni qisqa vaqt ichida yerga yotqizish, quolsizlantirish va zararsizlantirish huquqni muhofaza qiluvchi organchi hayoti va atrofdagilarning xavfsizligini ta’minlaydi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Sambo vositalari - jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari dasturi

Mashq nomi	Takrorlashlar soni	Yuklama darajasi (YQCH)	Ilmiy izoh
Tik holatdan oldinga yiqilish (samostraxovka)	15 marta	50–60% (120 m/daq)	Yumshoq gilamda to‘g‘ri yiqilishni o‘rganish. Mushaklarni isitadi, jarohatlardan saqlaydi.
Yon tomonga yiqilish	30 marta	50–60% (120 m/daq)	Yon tomonga yiqilish texnikasi. Xavfsiz yiqilish reflekslarini rivojlantiradi.
Orqaga yiqilish texnikasi	15 marta	50–60% (120 m/daq)	Orqaga yiqilish orqali bosh va umurtqa jarohatlarining oldini olish mashqi.

2-jadval davomi

Yelka orqali yiqitish	15 marta	60–70% (130 m/daq)	Raqibni elkadan oshirib yiqitish texnikasi.
Oyoq bilan oldinga chalib tashlash	15 marta	60–70% (130 m/daq)	Oyoq bilan oldinga supurish orqali muvozanatni yo‘qotish.
Belbog‘dan ushlab uloqtirish	15 marta	70% (140 m/daq)	Belbog‘dan ushlab uloqtirib yiqitish texnikasi.
Kombinatsiya: Blok va chalib tashlash	15 marta	70–75% (145 m/daq)	Hujumni bloklab, darhol oyoqdan chalib tashlash.
Kombinatsiya: Yelka orqali yiqitib ushlab qolish	30 marta	75% (150 m/daq)	Yiqitgach, ushlab qolish texnikasi.

Birinchi mashg‘ulotda xavfsiz yiqilish usullariga alohida e‘tibor, chunki bu keyingi mashg‘ulotlarda jarohatlanishning oldini oladi. Yiqilish (samostraxovka) texnikasi bu – bajaruvchi o‘zini qanday tashlashidan qat’i nazar, tananing nozik qismlarini (bosh, bo‘yin, umurtqa) zarbadan saqlashni avtomatik ravishda bajarishi. Mashg‘ulot boshida yengil qizdirishdan so‘ng yuqoridan oldinga, yonga va orqaga yiqilishlar bajarildi. Bu mashqlar vaqtida YQCH 120 atrofida (yengil yuklama) bo‘lib, asosan mushaklar isindi va koordinatsiya o‘rgatildi. Sambo kurashida yiqilish texnikasini bilish juda muhim – huquqni muhofaza qiluvchi organchi ham to‘satdan yiqitib yuborilsa, o‘zini jarohatlardan himoya qila olishi kerak. Ilmiy nuqtai nazardan, bu mashqlar vestibulyar apparatni va nerv-muskul koordinatsiyasini rivojlantiradi, tananing fazoviy holatini tez baholash ko‘nikmasini hosil qiladi.

Asosiy o‘rgatilgan texnikalar – oddiy yiqitish usullari: yelkadan oshirib usulga tashlashlar va oldinga chalish. Bu ikkisi kurashning eng sodda lekin samarali usullaridan. Ularni dastlab sekin, bosqichma-bosqich bajarishga urg‘u berildi. Masalan, yelkadan oshirishda partnyorning muvozanatini buzish, keyin belini egib elkaga yuklash, so‘ngra tosni aylantirib usulga tashlashlar ketma-ketligi tushuntirildi. Bu paytda mashq yurak urishi biroz oshib ~130 ga yetdi (o‘rtacha yuklama), chunki ishtirokchilar partnyorni ko‘targanda kuch ishlatishadi. Ushbu usul ancha portlovchan kuch talab qiladi – partnyorni keskin harakat bilan yerdan uzib, orqaga tashlash kerak. Shuning uchun bu mashqni o‘rganish jarayonida xodimlarning son, bel va qo‘l muskullari faol ishladi, ularning quvvati ishga solindi. Birinchi darsda kuchdan ko‘ra texnikaga e‘tibor qaratildi, zero to‘g‘ri texnika qo‘llansa, kamroq kuch bilan ham samara chiqadi.

Oldinga chalish – raqibni oyoqqa qoqib yiqitish usuli – huquqni muhofaza qiluvchi organ uchun juda qo‘l keladi, chunki unda raqib uzoq masofaga uchib ketmaydi, faqat oyog‘i ostidan qattiq sidirib qoldirilgani uchun yiqiladi. Bu usul tartib buzgan shaxsni tezda yerga yotqizish uchun samarali. Mashg‘ulotda uni o‘rgatish davomida ham xodimlar juftlikda bir-birining oyoqlariga to‘satdan harakat qilishni

mashq qilishdi. Buning natijasida ularning tezkorlik va ko‘z koordinatsiyasi rivojlanadi. Mazkur mashq YQCHni biroz oshirdi (~140), chunki har bir chalishda tez harakat va qisqa kuchlanish bor. Bunday qisqa portlovchi harakatlar anaerob tizimni ishga soladi, lekin mashqlar oralig‘i yetarli bo‘lgani uchun yurak urishi tez orada tiklanib, haddan tashqari charchoqqa yo‘l qo‘yilmadi.

Belbog‘dan ushlab usulga tashlashlar – bu ham kirish darajasidagi usul bo‘lib, xodim raqibning belbog‘i yoki belidan mahkam tutib, yon tomonga egiladi. Amalda bu kurashchini “yarmida ag‘darish”ga o‘xshaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ uchun ham ushbu harakat foydali: agressiv shaxsni belidan quchoqlab, yon tomonga yiqitib, unga yonboshlab olish mumkin. Bu usul mashg‘ulotda ko‘rsatildi va 5 marta takrorlandi. Usulga tashlashlar paytida YQCH ~140 atrofida qoldi – chunki harakat nisbatan sekin bajarildi (o‘rganuvchilar ehtiyotkor). Lekin shu orqali xodimlar tanadagi kuch ishlatilishini his qilishdi, muvozanatni buzishning yana bir variantini ko‘rdilar. Ilmiy jihatdan, bunday mashqlar gavda mushaklarini (asab-mushak bog‘lamlarini) mustahkamlaydi, chunki raqibni ko‘tarib yiqitish jarayonida butun tana harakatda ishtirok etadi, markaziy mushaklar (son, bel, qorindagi muskul) jips ishlaydi. Shu sababli ham kurashchilar odatda juda baquvvat va bardoshli bo‘ladilar – muntazam usulga tashlashlar mashqlari ularning kuch va kuch-quvvatini oshiradi.

Mashg‘ulot yakunida ikkita oddiy kombinatsiya o‘rgatildi. Birinchisi – “blok + chalish”: raqibning qo‘l zarbasini chap kaft bilan to‘sib, o‘sha zahoti uning o‘ng oyog‘ini supurib yiqitish. Bu huquqni muhofaza qiluvchi organchi uchun muhim o‘zini himoya kombinatsiyasi. Ikkinchisi – “yelkadan usulga tashlashlar + ushlab turish”: partnyorni yelkadan oshirib yiqitgach, uning ko‘kragiga tirsak bilan bosib 3 soniya ushlab turish (shunchaki nazorat qilish amaliyoti uchun). Bu kombinatsiya bilan xodimlar yiqitish ortidan nazoratni boy bermaslikka o‘rgatiladi. Kombinatsiyalar sekin sur‘atda 2-3 marta, so‘ng biroz tezlashtirib yana takrorlandi. YQCH 150 atrofida chiqdi, chunki bu paytda ishtirokchilar harakatni biroz musobaqalashib bajarishga intildi (raqobat elementi kirganida yurak urishi ortadi, adrenalinning ta’siri).

Birinchi mashg‘ulotda yirik mushak guruhlari yengilroq yuklama oldi, asosan texnik ko‘nikma shakllantirish boshlangan bo‘lsa-da, allaqachon ba’zi mashqlar xodimlarning jismoniy kuchini talab qildi (masalan, yelkadan usulga tashlashlar). Mashg‘ulot nihoyasida hamma ishtirokchilar normal holda mashqlarni yakunladi, ortiqcha charchoq kuzatilmadi. Bu mashg‘ulot ularni navbatdagi murakkabroq usullar uchun tayyorlab berdi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Jangovar tayyorgarlikni oshirishda turli vositalar bilan aylanma mashg‘ulot

Mashq nomi	Takrorlashlar soni	Yuklama darajasi (YQCH)	Ilmiy izoh
Oldingi mashqlarni takrorlash	3 marta	50% (110 m/daq)	Avvalgi darsdagi texnikalarni takrorlash.
Tizzaga o‘tirib uloqtirish	5 marta	65% (135 m/daq)	Tizzaga o‘tirib, raqibni uloqtirish usuli.

3-jadval davomi

Orqaga chalib tashlash	5 marta	70% (140 m/daq)	Orqaga chalib yiqitish.
Yonbosh bilan ushlab turish	5 marta	60–70% (130 m/daq)	Raqibni yonbosh bilan yerda ushlab turish.
Orqadan bo‘g‘ib ushlab turish	5 marta	60% (125 m/daq)	Orqadan bo‘g‘ib nazorat qilish.
Bilak qayirish usuli	5 marta	65% (135 m/daq)	Bilakni qayirish orqali og‘riq berish.
Kombinatsiya: Chalib yiqitish va ushlab turish	3 marta	75% (150 m/daq)	Yiqitgach, darhol ushlab qolish.
Kombinatsiya: Blok va tizza uloqtirish	5 marta	70–80% (150–160 m/daq)	Hujumni bloklab, tizzaga o‘tirib uloqtirish.

Ikkinchi mashg‘ulot avvalgi dars materialini qisqacha takrorlashdan boshlandi – bu yaxshi pedagogik usul, chunki yangi o‘rgangan texnikani mustahkamlash kerak. Ishtirokchilar yana bir necha bor oldingi mashg‘ulotdagi yiqilishlarni bajarib ko‘rishdi, so‘ng 1-2 marta yelkadan usulga tashlashlar ham takrorlandi (YuQCH - 110, yengilroq faollik). Shundan keyin yangi usullar o‘rgatishga kirishildi.

Birinchi yangi texnika – “tizzaga o‘tirib usulga tashlashlar”, bu ham yelkadan oshirishning bir ko‘rinishi, faqat bajaruvchi polvon bir tizzasiga cho‘kkalab, raqibni pastroq markazdan uloqtiradi. Ushbu usul nisbatan past bo‘yli xodim baland bo‘yli raqibni yiqitishi uchun qulay variant bo‘lishi mumkin – chunki bunda polvon pastga cho‘kib, raqibning og‘irlik markazini tushiradi va kuchliroq moment hosil qiladi. Mashg‘ulotda bu usul sekin ko‘rsatilib, juftliklar uni 5 martadan bajarishdi. Texnika murakkabroq bo‘lgani uchun dastlab ko‘pchilikda xato chiqdi (masalan, polvon tizzaga to‘liq o‘tirmay, raqibni yelkasiga to‘liq ololmadi va h.k.). Murabbiy tomonidan xatolar tuzatilgach, takroran bajarildi. Bu mashq payti yurak urishi ~135 gacha chiqdi (o‘rtacha), chunki ishtirokchilar endi ikkinchi mashg‘ulotga kirishib, badanlari isib qolgandi, ba‘zilari ko‘tarish paytida zo‘riqdi. Ammo oraliq damlar bilan yuklama muvozanatlandi.

Navbatdagi usul – “orqaga chalish”. Bu usulda polvon raqibni orqaga tortib, uning bir oyog‘ini orqaga olib, raqibni yelka bilan tortadi yoki tizzasini orqaga sidiradi. Mazkur harakat qo‘lga olish paytida, masalan, gumonlanuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organdan qochmoqchi bo‘lganda, orqadan quvib borib ushlab yiqitishga juda o‘xshash. Mashg‘ulotda buni o‘rganish uchun juftliklardan biri ikkinchisini sekin orqaga tortib, oyog‘iga chalish qo‘ydi – oldindan tayyor holda bo‘lgani uchun, albatta, haligacha real kurash emas, balki ko‘rgazmali mashq shaklida. Ushbu mashq ham 5 martadan bajarildi. Yangi harakat bo‘lgani bois, YQCH ~140 atrofida bo‘ldi. Orqaga chalishda odamning gavda muvozanati orqaga ketadi, bu paytda qarshi chora ko‘rishi qiyin bo‘ladi – shu sabab, bu usul huquqni muhofaza qiluvchi organchilar uchun ham xavfsiz va samarali. Ilmiy jihatdan, bunday mashqlar xodimlarda reaksiya tezligi va muvozanatni his qilish qobiliyatini oshiradi: chunki ular raqibning og‘irlik markazi qayerga siljiyotganini payqab, zarur

tomonga tortadi. Bu esa proprioseptiv (tana pozitsiyasini sezish) qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Mashg'ulotning muhim qismi – parter (yerda kurash) usullarini boshlash bo'ldi. Dastlabki o'rgatilgan parter elementi – “yon ustida ushlab turish”. Bu sport sambosida yerda yotgan raqibning yon tomoniga boshini bosib turadi, o'zi yonboshlab bir qo'li bilan raqibning bo'ynidan, ikkinchi qo'li bilan qo'lidan ushlab nazoratlaydi. Xodimlar bu holatni juftlikda mashq qilishdi: biri yerda yotadi, ikkinchisi uning yoniga yotib, belgilangan tutqichlarni ushlab 10 soniya ushlab turadi. So'ng rollar almashtirildi. Bu mashq paytida YQCH ~130 atrofida saqlanib turdi, chunki bu statik ushlab bo'lib, ko'p harakat yo'q, lekin kuchlanish bor – polvon raqibni qattiq bosib turgani uchun uning mushaklari taranglashgan (izometrik siqilish). Izometrik kuchlanish qon bosimini oshiradi, lekin YQCHni biroz tushirishi mumkin ham (chunki harakat yo'q). Bu mashq xodimlarga yerda nazorat qilish tamoyillarini ko'rsatdi: agar gumonlanuvchi yiqitilgan bo'lsa, uni qanday ushlab turish mumkinligi amalda sinab ko'rildi. Tajribadan ma'lumki, yerga yotqizilgan shaxsni to'liq bo'ysundirish uchun uni hech bo'lmasa bir necha soniya harakatsiz ushlab turish kerak bo'ladi. Shunda uni kishanlash yoki boshqarish yengillashadi. Sambo usullaridan yonboshlab ushlab huquqni muhofaza qiluvchi organga aynan shunday imkon beradi.

Keyingi yangi element – “orqadan bo'g'ib ushlab” (yoki “Nelson usuli” deyish ham mumkin). Bunda polvon raqibning orqasiga o'tib, qo'llarini uning bo'yniga (tomog'iga emas, iyak ostidan) va yelkasiga joylab, go'yoki bo'g'ish holatida ushlab turadi. Biz buni to'liq bo'g'ishga yetkazmadik (ya'ni hushdan ketkazish yo'q), faqat nazorat usuli sifatida, chunki huquqni muhofaza qiluvchi organda bo'g'ish (bo'g'ma usul) qo'llash taqiqlanishi mumkin. Ammo hayot-mamot holatlarida bilib qo'yish ortiqchalik qilmaydi. Mashg'ulotda orqadan ushlabni xavfsiz tarzda mashq qilishdi – partnyorning ishorasi bilan darhol qo'yib yuborish sharti bilan. Bu ham 5 martadan takrorlandi. Bu paytda YQCH baland emas (~125), chunki bu ham qisqa davrli statik usul. Biroq ishtirokchilar biroz hayajonlanishdi, chunki bo'g'ilish hissi noxush, shu sabab diqqat bilan va ehtiyotkorlik bilan bajarishdi. Bu mashq xodimlarga orqadan yondashib tajovuzkorni nazorat qilish imkonini beradi – masalan, notanish shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organchiga tashlanmoqchi bo'lsa, boshqa bir xodim orqadan kelib uni bo'ynidan ushlab tortib olishi mumkin. Bu usul hamkorlikdagi operatsiyalarda qo'l keladi.

Shuningdek, bu mashg'ulotda bilakni qayirish usuli tik turgan holatda o'rgatildi. Bu huquq-tartibot organlarida juda keng qo'llaniladigan usul: xodim shaxsning qo'lini to'mtoq og'riq beradigan qilib qayiradi va shunday ushlab, yurishga majbur qiladi. Masalan, ichki ishlar xodimi mast bezorini bo'linga olib ketayotganda uni bilagidan qayirib olib borishi odatiy hol. Sambo texnikasida buni bajarishning ma'lum usullari bor – asosan, raqibning panjasini ichkariga burib, tirsagini bukib, og'riq nuqtasini ushlab orqali amalga oshiriladi. Mashg'ulotda ishtirokchilar juftlikda bir-birlarining bilagini ohista burab ko'rishdi. Bu paytda juda ehtiyot bo'lish kerak edi, chunki ortiqcha harakat jarohatga olib kelishi mumkin. Shu sabab, takror soni ham ko'p emas – 5 martadan. Yuklama ham katta emas

(~135 YQCH), asosan texnik mahorat talab qilinadi. Mazkur mashq qo‘lga olish ko‘nikmasining asosiy qismi bo‘lib, xodimlar endi nazoratli og‘riq bilan bo‘ysundirish nima ekanini tushunishdi. Ilmiy asosda, bu mashq paytida ularning qo‘l kuchi va mayda muskullar ishladi, paylar cho‘zildi. Doimiy mashq qildirish natijasida bilaklarni qayirishga ham o‘rganib, bo‘g‘imlarning harakatchanligi oshadi – huquqni muhofaza qiluvchi organchining o‘zi ham bunday og‘ritish usullariga chidamliroq bo‘lib boradi (desensitizatsiya).

Mashg‘ulotning kombinatsion qismida birinchidan – “chalish + ushlab turish” kombinatsiyasi sinab ko‘rildi. Bu 1-mashg‘ulotdagiga o‘xshash, faqat endi oldinga yoki orqaga chalib yiqitgan zahoti ustiga chiqib yonboshlab ushlab turish mashqi. Juftliklar bunga moslashdi (3 marta), YQCH ~150 ga chiqdi, chunki bu bir oz musobaqa elementida o‘tdi: qaysi biri tez va to‘g‘ri bajara oladi. Ikkinchi kombinatsiya – “blok + tizza-usulga tashlashlar”: ya’ni, raqib zarba bersa, xodim uni to‘sadi-da, darhol bir tizzasiga tushib, yelkadan usulga tashlashlar usulini bajaradi. Bu juda chiroyli va tezkor kombinatsiya; agar o‘rnida bajarilsa, hujumchining zarbasi ham zoe ketadi, o‘zi ham yerda qoladi. Ishtirokchilar buni sekin va tez takrorlashdi (~5 marta), ba’zilari uddaladi, ba’zilarida harakat ulog‘i to‘g‘ri kelmadi (tez bajarishda muvozanatni yo‘qotishdi). Biroq, har holda, ular himoya-hujum bog‘lanishini tushuna boshladi. Bu mashq jismonan ham foydali: chap qo‘l bilan blok, o‘ng qo‘l bilan usulga tashlashlar – butun tanani ishga soladi, tana burilishlari va tez tizza bukish talab qilinadi. YQCH 160 ga chiqishi ham shundan – bu bir paytning o‘zida portlovchan harakatlar ketma-ketligi bo‘ldi, yurak faol javob qaytardi (anaerob quvvat ishga tushdi).

Mashg‘ulot yakunida standart tortinish mashqlari va qisqa yengil yugurish bilan mashg‘ulot natijasida xodimlar endi 5–6 xil yiqitish usulini va 2 xil ushlab turish (biri parterda, biri tik holda) usulini bilishadi. Ertasi kuni mushaklarda yengil og‘riq kuzatilishi mumkin, bu tabiiy – chunki yangi jismoniy faoliyatga moslashuv jarayoni ketmoqda. Reja bo‘yicha endi bir kun dam olish (48 soat) beriladi, bu paytda mushak tolalari tiklanadi va kuchayadi. Shunday qilib, dastur navbatdagi mashg‘ulotda yana biroz murakkabroq bosqichga o‘tishga tayyor (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Og‘ritish usullari yordamida jangovar tayyorgarlikni oshirish dasturi

Mashq nomi	Takrorlashlar soni	Yuklama darajasi (YQCH)	Ilmiy izoh
Ko‘krakdan oshirib tashlash	5 marta	70% (140 m/daq)	Ko‘krak orqali ko‘tarib uloqtirish.
Ichkaridan oyoq chalib tashlash	5 marta	65% (130 m/daq)	Ichki tomonidan oyoqni ilib yiqitish.
Tirsak bukish (kimura)	5 marta	60% (120 m/daq)	Qo‘lni tirsakdan bukish texnikasi.
Oyoq panjasiga og‘riq berish	5 marta	55% (115 m/daq)	Oyoq panjasini qayirish orqali og‘riq berish.
Mokisimon yugurishlar	2 daqiqa	60% (130 m/daq)	Yugurib burilish orqali nafasni tiklash.

4-jadval davomi

Kombinatsiya: Uloqtirish va bilak qayirish	5 marta	75% (150 m/daq)	Uloqtirib, bilakni qayirish orqali ushlab qolish.
Kombinatsiya: Zarba va oyoq chalib tashlash	5 marta	80% (160 m/daq)	Zarba bilan chalg'itib, oyoq chalib tashlash.
Kombinatsiya: Bo'shanish va bo'g'ish	3 marta	70% (140 m/daq)	Bo'shanish va qarshi bo'g'ish texnikasi.

Mazkur mashg'ulot dasturida xodimlarga sambo kurashining og'ritish (taslim bo'ldirish) usullari, yangi yiqitish texnikalari va kombinatsiyalangan jangovar harakatlar bosqichma-bosqich o'rgatildi. Avval ikki hafta davomida yiqitish va ushlar o'zlashtirilgach, bo'g'imlarga ishlov berish texnikasiga o'tildi. Qo'lga ishlashda tirsak va yelka bo'g'imlariga ta'sir qiluvchi usullar hamda yerda yotgan raqibning oyoq panjasiga bosim berish texnikasi ehtiyotkorlik bilan tatbiq etildi.

Yangi yiqitish usullari sifatida "ko'krakdan oshirib tashlash" va "oyoqqa ilib chalish" mashqlari kiritildi. Birinchisi bel va qo'l mushaklaridan kuchli foydalanishni talab etib, qisqa muddatda yuqori yurak urish tezligini (YQCH ~140) hosil qildi. Ikkinchisi esa muvozanat va oyoq paylarini mustahkamlashga xizmat qilib, YQCH ~130 darajasida bajarildi. Og'ritish texnikalarida YQCH odatda 115–120 oralig'ida bo'lib, bo'g'im harakatchanligini oshirish va taslim qildirish prinsiplarini o'zlashtirishga yo'naltirildi.

Mashg'ulot yakunida qo'llangan kombinatsiyalar orasida "usulga tashlash + bilak qayirish", "zarba bilan chalg'itish + ilib chalish" hamda "bo'shanish + qarshi bo'g'ish" o'ziga xos ahamiyat kasb etdi. Birinchisi gumonlanuvchini yiqitib darhol qo'lini qayirish orqali harakatsizlantirish, ikkinchisi raqib e'tiborini chalg'itib tezkor yiqitish, uchinchisi esa bo'g'ilishdan chiqib qarshi hujum qilish ko'nikmalarini shakllantirdi. Bu kombinatsiyalar YQCHni 140–160 gacha yetkazib, tezkorlik va taktika elementlarini rivojlantirdi.

Mashg'ulot davomida yuklama dinamikasi notekis bo'lib, kuchli yiqitishlardan so'ng YQCH pasaydi, keyin yengil yugurish bilan muvozanatlashtirildi. Mashg'ulot turli jismoniy sifatlarni – portlovchan kuch, muvozanat, statik kuch va moslashuvchanlikni kompleks rivojlantirishga xizmat qildi. Natijada ishtirokchilar 2 soatlik mashg'ulot yuklamasiga moslashib, tiklanish tezligi yaxshilandi.

Keyingi bosqichlarda kombinatsiyalarni murakkablashtirish, himoya va hujum tezkorligini oshirish, quolsizlantirish usullarini o'rgatish, yarim sparring va ko'p raqibga qarshi kurash elementlarini kiritish, yakunda esa barcha texnikalarni takrorlash va normativlarni topshirish rejalashtirilgan. Yuklama haftadan haftaga oshiriladi, 8-haftada xodimlar 1 daqiqa uzluksiz kurash olib borish darajasiga yetkaziladi.

Sambo usullariga asoslangan jangovar tayyorgarlik ichki ishlar va Milliy gvardiya xodimlari uchun dolzarb va samarali metodikadir. Nazariy asoslangan mashg'ulot rejasi, milliy an'ana va xorijiy tajribaning uyg'unlashuvi, fiziologik

me'yorlarga moslashtirish orqali amaliy natijadorlik ta'minlanadi. Taklif etilgan uslubiyat muntazam qo'llansa, xodimlarning jismoniy va jangovar tayyorgarligi sifat jihatidan yuqori pog'onaga ko'tariladi, jinoyatchilarni qo'lga olish samaradorligi oshadi, ortiqcha shikast yetkazish xavfi kamayadi. Tavsiya etilgan mashqlar ichki ishlar organlari o'quv yurtlari, malaka oshirish kurslari va xizmat bo'linmalarida keng tatbiq etilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Kursantlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirishning ilmiy-nazariy ahamiyati”** nomli beshinchi bobida Milliy gvardiya va Ichki ishlar vazirligi tizimidagi kursantlarning umumiy (UJT) va maxsus (MJT) jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining dinamikasi chuqur ilmiy-pedagogik tahlil qilingan. Bobda tajriba va nazorat guruhleri ishtirokida o'tkazilgan kompleks eksperimental mashg'ulotlar jarayoni va natijalari keltirilib, jismoniy tayyorgarlikning kasbiy samaradorlikka ta'siri ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot boshlanishida kursantlarning UJT va MJT darajasi bo'yicha boshlang'ich ko'rsatkichlar qayd etilib, ikki guruhning dastlabki imkoniyatlari statistik jihatdan teng ekani aniqlangan. Maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturi asosida shug'ullangan tajriba guruhi kursantlarida umumiy jismoniy sifatlar - kuch, chidamlilik, tezkorlik va muvozanat bilan birga, maxsus jangovar malakalar - jinoyatchini zararsizlantirish, quolsizlantirish, himoya va qarshi hujum texnikalari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Umumiy jismoniy tayyorgarlik holatining o'zgarish dinamikasi

T/r	Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqot boshida					Tadqiqot oxirida				
			\bar{X}	σ	V%	t	P	\bar{X}	σ	V%	t	P
1	Turnikda toritilish	TG	12,16	1,99	16,39	0,95	>0,05	15,72	2,37	15,09	2,83	<0,01
		NG	12,80	2,06	16,11			13,68	1,93	14,11		
2	Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta)	TG	36,24	4,49	12,40	0,78	>0,05	41,00	4,47	10,91	2,09	<0,05
		NG	37,36	4,15	11,11			38,04	4,01	10,53		
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	TG	214,72	14,19	6,61	0,46	>0,05	227,16	10,77	4,74	2,42	<0,05
		NG	212,56	13,95	6,56			217,52	13,06	6,01		
4	1000 metrga yugurish (daqiqqa, soniya)	TG	3,56	0,31	8,79	0,51	>0,05	3,30	0,12	3,65	2,29	<0,05
		NG	3,51	0,31	8,80			3,47	0,29	8,41		
5	3000 metrga yugurish (daqiqqa, soniya)	TG	13,37	0,89	6,66	0,81	>0,05	12,92	0,77	5,97	2,12	<0,05
		NG	13,61	0,81	5,87			13,46	0,76	5,67		

Tadqiqot so'ngida kursantlarning jismoniy tayyorgarlik holatlarida bo'lgan o'garishni hamda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodikaning asosli ekanligini isbotlash maqsadida nazorat sinovlar o'tkazildi. Nazorat sinovlari quyidagi natijalarni berganligini ko'rishimiz mumkin (5-jadvalga qarang).

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi qayta olindi va ahamiyatlilik darajalari aniqlandi, unga

ko'ra tajriba guruhi quyidagi natijalarni qayd etdi:

Turnikda tortilish bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 12,80 martani, standart og'ish (o'rtacha kvadratik og'ish) – 2,06, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 13,68 martaga, standart og'ish (o'rtacha kvadratik og'ish) – 1,93 ga yaxshilangan, tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 12,16 martani tashkil qildi, standart og'ish – 1,99, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 15,72 martaga, standart og'ish – 2,37 ni yaxshilanganligini $t=2,83$, ($P<0.01$) ko'rsatdi;

Yerga tayangan holda qo'llarni bukib yozish (marta) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 37,36 martani, standart og'ish – 4,15, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 38,04 martaga, standart og'ish – 4,01 ga yaxshilangan, tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 36,24 martani tashkil qildi, standart og'ish – 4,49, tadqiqot oxiriga kelib o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 41,00 martaga, standart og'ish – 4,47 ni yaxshilanganligini $t=2,09$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 212,56 smni, standart og'ish – 13,95, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 217,52 smga, standart og'ish – 13,06 ga oshganligi, tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 214,72 smni, standart og'ish – 14,19, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 227,16 smga, standart og'ish – 10,77 ga oshganligini $t=2,42$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

1000 metr ga yugurish (daqiqqa) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 3,51 daqiqani, standart og'ish – 0,31, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 3,47 daqiqaga, standart og'ish – 0,29 ga yaxshilangan, tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 3,56 daqiqani tashkil qildi, standart og'ish – 0,31, tadqiqot oxiriga kelib o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 3,30 daqiqaga, standart og'ish – 0,12 ni yaxshilanganligini $t=2,29$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

3000 metr ga yugurish (daqiqqa) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 13,61 daqiqani, standart og'ish – 0,81, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 13,46 daqiqaga, standart og'ish – 0,76 ga yaxshilangan, tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 13,37 daqiqani tashkil qildi, standart og'ish – 0,89, tadqiqot oxiriga kelib o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 12,92 daqiqaga, standart og'ish – 0,77 ni yaxshilanganligini $t=2,12$, ($P<0,05$) ko'rsatdi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Maxsus jismoniy tayyorgarlik holatining o'zgarish dinamikasi

T/r	Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqot boshida					Tadqiqot oxirida				
			\bar{X}	σ	V%	t	P	\bar{X}	σ	V%	t	P
1	30 soniya davomida to'ldirma qopni urish	TG	26,72	3,6 3	13,60	0,69	>0,05	30,84	2,7 9	9,06	2,33	<0,05
		NG	27,52	3,2 8	11,92			28,48	3,2 5	11,43		
2	1 daqiqa davomida to'ldirma qopni tepish	TG	37,16	4,4 3	11,93	0,48	>0,05	41,68	3,4 7	8,33	2,24	<0,05
		NG	37,84	4,0 9	10,81			38,88	4,0 0	10,30		
3	30 soniya davomida raqibni beldan oshirib tashlash	TG	19,52	2,5 7	13,15	0,73	>0,05	23,04	2,1 6	9,36	2,53	<0,05
		NG	20,12	2,3 5	11,68			21,16	2,3 1	10,89		
4	10 metr uzoqlikdan pichoqni taxtaga uloqtirish	TG	2,64	0,4 9	18,56	0,43	>0,05	3,88	0,6 7	17,16	2,93	<0,01
		NG	2,72	0,6 1	22,56			3,16	0,8 1	25,32		
5	1 daqiqalik bellashuv(sparring)dagi bajarilgan hujum harakatlar soni	TG	11,20	2,2 0	19,63	0,88	>0,05	13,56	2,1 4	15,80	2,85	<0,01
		NG	10,60	1,8 7	17,65			11,76	1,6 1	13,73		

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhi kursantlarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi qayta olindi va ahamiyatlilik darajalari aniqlandi, unga ko'ra tajriba guruhi quyidagi natijalarni qayd etdi: 30 soniya davomida to'ldirma qopni urish bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 27,52 martani, standart og'ish (o'rtacha kvadratik og'ish) – 3,28, tadqiqot oxirida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 28,48 martaga, standart og'ish – 3,25 ga yaxshilangan; tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 26,72 martani, standart og'ish – 3,63, tadqiqot oxirida o'lchangan o'rtacha qiymat – 30,84 martaga, standart og'ish – 2,79 ni yaxshilanganligini $t=2,33$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

1 daqiqa davomida to'ldirma qopni tepish bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 37,84 martani, standart og'ish – 4,09, tadqiqot oxirida o'lchangan qiymat – 38,88 martaga, standart og'ish – 4,00 ga oshganligi; tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha qiymat – 37,16 martani, standart og'ish – 4,43, tadqiqot oxirida o'lchangan o'rtacha qiymat – 41,68 martaga, standart og'ish – 3,47 ni yaxshilanganligini $t=2,24$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

30 soniya davomida raqibni beldan oshirib tashlash bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 20,12 martani, standart og'ish – 2,35, tadqiqot oxirida o'lchangan qiymat – 21,16 martaga, standart og'ish – 2,31 ga yaxshilangan; tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 19,52 martani, standart og'ish – 2,57, tadqiqot oxirida

o'lgangan o'rtacha qiymat – 23,04 martaga, standart og'ish – 2,16 ni yaxshilanganligini $t=2,53$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

10 metr uzoqlikdan pichoqni taxtaga uloqtirish bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lgangan o'rtacha qiymat – 2,72 martani, standart og'ish – 0,61, tadqiqot oxirida o'lgangan qiymat – 3,16 martaga, standart og'ish – 0,81 ga oshganligi; tajriba guruhida esa tadqiqot boshida o'lgangan o'rtacha qiymat – 2,64 martani, standart og'ish – 0,49, tadqiqot oxirida o'lgangan o'rtacha qiymat – 3,88 martaga, standart og'ish – 0,67 ni yaxshilanganligini $t=2,93$, ($P<0,01$) ko'rsatdi;

1 daqiqalik bellashuv (sparring)dagi bajarilgan hujum harakatlar soni bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lgangan o'rtacha qiymat – 10,60 martani, standart og'ish – 1,87, tadqiqot oxirida o'lgangan qiymat – 11,76 martaga, standart og'ish – 1,61 ga yaxshilangan; tajriba guruhida tadqiqot boshida o'lgangan o'rtacha qiymat – 11,20 martani, standart og'ish – 2,20, tadqiqot oxirida o'lgangan o'rtacha qiymat – 13,56 martaga, standart og'ish – 2,14 ni yaxshilanganligini $t=2,85$, ($P<0,01$) ko'rsatdi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

Maxsus jismoniy tayyorgarlik holatining o'zgarish dinamikasi

T/r	Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqot boshida					Tadqiqot oxirida				
			\bar{X}	σ	V%	t	P	\bar{X}	σ	V%	t	P
1	Jinoyatchi bo'g'ib turganida yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish (soniya)	TG	4,64	0,91	19,56	0,47	>0,05	3,20	0,76	23,87	2,28	<0,05
		NG	4,48	1,12	25,06			3,80	0,82	21,49		
2	3 ta jinoyatchi hujum qilganida jangovar sambo usullari yordamida oshirib tashlash (soniya)	TG	14,80	1,89	12,79	0,81	>0,05	12,64	1,38	10,92	2,56	<0,05
		NG	15,24	1,33	8,74			13,84	1,43	10,36		
3	3 ta jinoyatchi hujum qilganida jangovar sambo usullari yordamida oshirib tashlash (soniya)	TG	4,17	0,82	19,77	0,55	>0,05	3,41	0,51	14,82	2,11	<0,05
		NG	4,03	0,73	18,15			3,83	0,71	18,22		

Tadqiqot oxirida tajriba va nazorat guruhi kursantlarining jismoniy tayyorgarlik dinamikasi qayta olindi va ahamiyatlilik darajalari aniqlandi, unga ko'ra tajriba guruhi quyidagi natijalarni qayd etdi:

Jinoyatchi bo'g'ib turganida yelkadan oshirib tashlash usulini bajarish (soniya) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lgangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 4,48 soniyani, standart og'ish (o'rtacha kvadratik og'ish) – 1,12, tadqiqot oxirida o'lgangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 3,80 soniyaga, standart og'ish – 0,82 ga yaxshilangan; tajriba guruhida esa tadqiqot boshida o'lgangan o'rtacha arifmetik qiymat – 4,64 soniyani, standart

og'ish – 0,91, tadqiqot oxirida o'lchangan o'rtacha qiymat – 3,20 soniyaga, standart og'ish – 0,76 ni yaxshilanganligini $t=2,28$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

3 ta jinoyatchi hujum qilganida jangovar sambo usullari yordamida oshirib tashlash (soniya) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 15,24 soniyani, standart og'ish – 1,33, tadqiqot oxirida o'lchangan qiymat – 13,84 soniyaga, standart og'ish – 1,43 ga yaxshilangan; tajriba guruhida esa tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 14,80 soniyani, standart og'ish – 1,89, tadqiqot oxirida o'lchangan o'rtacha qiymat – 12,64 soniyaga, standart og'ish – 1,38 ni yaxshilanganligini $t=2,56$, ($P<0,05$) ko'rsatdi;

Jinoyatchi qurol bilan orqadan hujum qilganida qarshi hujum harakatini qo'llash (soniya) bo'yicha nazorat guruhi tadqiqot boshida o'lchangan kattaliklarning o'rtacha arifmetik qiymati – 4,03 soniyani, standart og'ish – 0,73, tadqiqot oxirida o'lchangan qiymat – 3,83 soniyaga, standart og'ish – 0,71 ga yaxshilangan; tajriba guruhida esa tadqiqot boshida o'lchangan o'rtacha arifmetik qiymat – 4,17 soniyani, standart og'ish – 0,82, tadqiqot oxirida o'lchangan o'rtacha qiymat – 3,41 soniyaga, standart og'ish – 0,51 ni yaxshilanganligini $t=2,11$, ($P<0,05$) ko'rsatdi.

XULOSALAR

1. Jangovar sambo asosida ishlab chiqilgan jismoniy tayyorgarlik metodikasi tajriba-sinov ishlarida o'zini yuqori samaradorlik bilan namoyon etdi. Ayniqsa, kursantlarning texnik-taktik harakatlarida 22,8% ga, jangovar pozitsiyadagi barqarorlikda 25,4% ga o'sish kuzatildi. Bu, o'z navbatida, xizmat faoliyatida hujum va himoya vazifalarini aniq va samarali bajarishga olib keladi. Kursantlar real xavf ostida tez va ishonchli qaror qabul qilishni o'rgandilar.

2.1 daqiqa davomida bajarilgan zarbali harakatlar sonining 17,6% ga oshganligi aniqlanib, bu tezkorlik va koordinatsiyaning sezilarli darajada yaxshilanishidan dalolat beradi. Ushbu natijalar jinoyatchiga zarba berish yoki uni zararsizlantirish uchun zarur bo'lgan reflekslarning takomillashganini ko'rsatadi.

3. Qurollangan jinoyatchini qo'lga olish texnikasi bo'yicha bajarilgan harakatlarning to'g'riligidagi o'sish (64,3% dan 85,9% gacha) bu metodika amaliyotda qo'llanilishining bevosita foydasini ko'rsatadi. Bu o'sish kursantlarning real xizmat holatlarida to'g'ri pozitsiya, tutib olish usullari, va jinoyatchini bejarohat ushlashga qodirligini tasdiqlaydi.

4. Yurak urish dinamikasining monitoringi orqali kursantlarning yuklamaga moslashuvi aniqlanib, yurak urish chastotasi 8-haftada 187 zarbaga yetdi. Funktsional holatning barqaror saqlanishi (92,1%) shuni ko'rsatadiki, intensiv mashg'ulotlar yurak-qon tomir tizimiga nojo'ya ta'sir qilmagan, balki uni mustahkamlashga xizmat qilgan.

5. Jismoniy sifatlarning yaxshilanishi – chaqqonlik, chidamlilik va kuch ko'rsatkichlari umumiy 19,3% ga oshgan. Bu holat kursantlarning xizmatda uzoq vaqt davomida yuqori samaradorlik bilan ishlay olish salohiyatini ko'rsatadi.

6. Muvozanatni saqlash va aniqlik bilan harakat qilish kabi ko'nikmalarning rivojlanishi (23,6% va 21,9%) kursantlarning og'ir sharoitlarda o'zini boshqara olishiga zamin yaratadi. Bu ayniqsa, kuchli qarshilik ko'rsatgan jinoyatchilar bilan kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Simulyatsion real sharoitdagi mashg'ulotlarda texnikani takrorlash va uni avtomatik darajaga yetkazish qobiliyati dastlabki 52,4% dan 89,7% gacha o'sdi. Bu esa o'rgatilgan texnika real xizmat holatlarida to'laqonli ishlatilishini anglatadi.

8. 2 ga 1 kurash elementlarining kiritilishi kursantlarning psixologik tayyorgarligini mustahkamladi. Stressga chidamlilik darajasi 24,5% ga yaxshilandi. Bu holat xizmatda murakkab holatlarda tezkor va muvofiqlashtirilgan harakatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

9. Nazorat kurashlari davomida eksperimental guruh normativ topshiriqlarni aniq va tez bajargan, ulardan 76,8% muvaffaqiyatli topshiriqni bajargan. Bu metodikaning natijaviyligidan dalolat beradi va ularni xizmat faoliyatiga mos holda tayyorlash imkoniyatini yaratadi.

10. Eksperiment davomida salomatlik holatining yomonlashuvi qayd etilmagan. Kursantlarda yuqori darajadagi aqliy faollik, intizomlilik va jamoaviy ishlashga tayyorlik shakllangan. Bu esa tayyorlangan kadrlarning universal va ko'p qirrali ekanligini bildiradi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Ichki ishlar akademiyasi va unga qarashli ta'lim muassasalarining o'quv rejaları va dasturlariga jangovar sambo asosidagi jinoyatchilarni qo'lga olish texnikasi bo'yicha mashg'ulotlarni majburiy fan sifatida kiritish lozim. Bu metodikaning tizimli asosda o'rgatilishi xodimlarning real vaziyatlarda harakat qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

2. Sport zallarida va tayyorgarlik poligonlarida xizmat sharoitiga yaqin simulyatsiya muhitini yaratish uchun virtual trenajyorlar, to'qnashuv maketlari va himoya jihozlari bilan jihozlangan maxsus maydonlar tashkil etilishi kerak.

3. Jismoniy tayyorgarlik baholovchi tizimlarga jangovar holatlarda texnikani bajarish aniqligi, qaror qabul qilish tezligi, muvozanatni saqlash va hujumga tezkor javob berish kabi ko'rsatkichlarni baholovchi kompleks diagnostika tizimini joriy etish tavsiya qilinadi.

4. Kursantlarda stressga chidamlilikni oshirish uchun yuqori psixologik yuklamali mashqlar, juftlik va guruhli kurash, turli og'irlikdagi qarshiliklar bilan kurashish texnikalari doimiy tarzda mashg'ulotlarga kiritilishi lozim.

5. Metodika asosida ishlab chiqilgan maxsus o'quv qo'llanma, tavsiyalar to'plami va mashg'ulotlar dasturi xizmat bosqichlariga qarab moslashtirilib, Ichki ishlar tizimi uchun metodik majmua sifatida tasdiqlanishi kerak.

6. Har bir kursantning yurak urish soni, nafas olish ritmi, mushaklarning charchash holatini nazorat qiluvchi individual biometrik monitoring tizimlari joriy etilishi zarur. Bu esa yuklamani boshqarish va individual yondashuvni ta'minlaydi.

7. Mashg'ulotlar jarayonida differensial yondashuv asosida har bir kursantga individual yuklama belgilash, ularning jismoniy salohiyatidan kelib chiqqan holda shaxsiy reja asosida ishlash samaradorlikni oshiradi.

8. Amaldagi xodimlar uchun xizmatdan so'ng tiklanish mashg'ulotlarini o'z ichiga olgan, yengil kurash, psixofiziologik tiklanish, relaksatsion texnikalarni qamrab oluvchi rehabilitatsion tayyorgarlik bloklarini ishlab chiqish va joriy qilish tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ
И СПОРТА УЗБЕКИСТАНА**

МАТЧАНОВ РУСЛАНБЕК АЗАТОВИЧ

**МЕТОДИКА ПОВЫШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ
СОТРУДНИКОВ ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫХ ОРГАНОВ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

**Диссертация на соискание ученой степени доктора педагогических наук (DSc)
АВТОРЕФЕРАТ**

Чирчик-2025

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2025.1.DSc/Ped1103.

Докторская диссертация выполнена в Государственном университете физической культуры и спорта Узбекистана.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.jtsu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный консультант:	Маткаримов Рашид Машарипович доктор педагогических наук (DSc), профессор
Официальные оппоненты:	Коробейников Георгий Валерьевич доктор биологических наук, профессор Ураимов Санжар Рузматович доктор педагогических наук, доцент Алламуратов Шухратулла Иноятович доктор биологических наук, профессор
Ведущая организация:	Узбекский национальный университет имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта «___» «_____» 2025 г. в _____ часов. (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, 19. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание Е, 3-й этаж, аудитория 309).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована под номером _____). (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлургов, 15. Тел.: (0-370) 717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(Протокол реестра рассылки No _____ от «___» _____ 2025 г.)

М.С.Олимов

Председатель научного совета по присуждению
ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

М.А.Ибрагимов

Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.п.п.н. (PhD), профессор

А.Н.Шопулатов

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.п.н (DSc), профессор

Введение (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире с каждым днем возрастает потребность в высоком уровне физической и боевой подготовки в профессиональной деятельности сотрудников правоохранительных органов. В частности, усложнение преступности, увеличение угроз безопасности требуют от сотрудников правоохранительных органов не только теоретических знаний и практических навыков, но и таких качеств, как физическая выносливость, психологическая устойчивость, оперативность и умение правильно действовать в боевых ситуациях. С этой точки зрения, в процессе многолетней подготовки сотрудников актуальное значение приобретает правильное и эффективное применение методических подходов, направленных на формирование технико-тактических действий в единоборствах, проведение тренировок, развивающих функциональное состояние, и психологическую подготовку. Однако разработка научно обоснованных методических указаний по комплексному применению единоборств для повышения боевой подготовки сотрудников правоохранительных органов, проведение исследований, направленных на устранение существующих проблем, и внедрение передовых подходов, повышающих результативность, по-прежнему остаются актуальными вопросами.

В мировом масштабе усложнение деятельности правоохранительных органов, совершенствование форм и методов преступности с каждым днем повышают требования к боевой подготовке сотрудников правоохранительных органов. В частности, актуальное значение приобретает повышение уровня физической подготовки, полноценное использование возможностей технико-тактической и психологической подготовки в видах единоборств для эффективного выполнения служебных обязанностей. Научные исследования, направленные на научно обоснованную организацию селекционной работы в системе профессиональной подготовки сотрудников, последовательное формирование навыков действий в боевых ситуациях, оптимизацию тренировочных нагрузок и методов, несомненно, послужат повышению результативности в этом направлении. Однако недостаточно проведены научные исследования по определению эффективности атакующих действий, результативно применяемых в служебной деятельности сотрудников правоохранительных органов, разработке оптимальных комбинаций приемов боевых единоборств, созданию научно обоснованных методических указаний, повышающих уровень боевой подготовки сотрудников, что обуславливает необходимость проведения глубоких научно-теоретических исследований в данном направлении.

В нашей стране проводятся последовательные реформы по развитию физической культуры и спорта, привлечению населения к здоровому образу жизни. В частности, совершенствование физической подготовки сотрудников правоохранительных органов, эффективное использование возможностей единоборств в повышении их профессионального мастерства стало

приоритетным направлением государственной политики. Как подчеркнул Президент Шавкат Мирзиёев: «Спорт - это, прежде всего, здоровый образ жизни, школа сильной воли и самоотверженности. Поэтому мы подходим к развитию сферы спорта на уровне государственной политики.»¹ На основе данного подхода в системе правоохранительных органов реализуются комплексные меры по регулярному мониторингу общей и специальной физической подготовки сотрудников, совершенствованию системы отбора, подготовке их к боевым ситуациям посредством методов единоборств, разработке современных научно-практических рекомендаций. Совершенствование профессиональной подготовки сотрудников, повышение эффективности службы за счет эффективного использования методов боевых единоборств и повышение уровня их конкурентоспособности в борьбе с современными угрозами безопасности остаются актуальными задачами сегодняшнего дня.

Приоритетные задачи, определенные в Постановлениях Президента Республики Узбекистан No ПП-5281 от 5 ноября 2021 года «О комплексной подготовке спортсменов Узбекистана к XXXIII летним Олимпийским и XVII Паралимпийским играм, проводимым в городе Париже (Франция) в 2024 году» и No ПП-414 от 3 ноября 2022 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров и научных исследований в области физической культуры и спорта,» сегодня приобретают актуальное значение в процессе повышения физической и боевой подготовки сотрудников правоохранительных органов. Также в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 августа 2022 года No 466 «Об утверждении Положения о внешкольном негосударственном спортивно-образовательном учреждении, осуществляющем деятельность в сфере физической культуры и спорта» определены конкретные задачи по совершенствованию деятельности спортивно-образовательных учреждений, адаптации системы отбора к современным требованиям, качественной подготовке юных спортсменов и развитию их функциональной, технико-тактической и психологической подготовки на научной основе. Исходя из сути и содержания данных нормативно-правовых актов, настоящее диссертационное исследование, посвященное комплексному применению единоборств в совершенствовании боевой подготовки сотрудников органов, в определенной степени служит практическим потребностям отрасли.

